

KAFEDRA FILIALINING OCHILISHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.05.2018-yildagi PQ-3702-sonli Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha bir qator ijobiy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarishning innovatsion korporativ hamkorligini yo'lga qo'yish borasida amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha "O'zbekgidroenergo" aksionerlik jamiyati hamda uning tarkibidagi "Chirchiq GESlar kaskadi" unitar korxonasi hamda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti o'rtasida tuzilgan shartnomalarga asosan talabalarga institutda olayotgan nazariy bilimlarini bevosita ishlab chiqarish jarayonida mustahkamlash maqsadida Chirchiq GESida institutning Hidrotexnika qurilishi fakulteti "Suv energiyasi va nasos stansiyalaridan foydalanish" kafedrasining filialining ochilishiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.



Tadbir "O'zbekgidroenergo" aksionerlik jamiyatining kadrlar va oliy ta'lim muassasalari bo'yicha boshqarma boshlig'i Sunnatov Inoyat Soxibovich, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi kadrlar boshqarmasi boshlig'i Xurshid Lapasov, "Chirchiq GESlar kaskadi" unitar korxonasi direktori - Shadmanov Abdurasul Abdurashidovich" institutning Hidrotexnika qurilishi fakulteti dekani Xasanov Baxriddin Baratovich tomonidan tantanali ravishda ochib berildi.

Kafedra filialida institutning "Irrigatsiya tizimlarida suv energiyasidan foydalanish" bakalavriat ta'lim yo'nalishi 4 kursining 59 nafar talabalari "Gidroenergetik qurilmalardan foydalanish" fanidan hamda "Nasos stansiyalari va qurilmalaridan foydalanish va tashxisi" va "Gidroelektrostansiyalar qurilishi va ulardan foydalanish" magistratura mutaxassisligi 17 nafar 1 va 2 kurs magistrantlari "Gidroenergetik qurilmalar" hamda "Gidroelektrostansiyalardan foydalanish" fanlaridan amaliy mashg'ulotlar davomida institutda olgan nazariy bilimlarini mustahkamlashadi. Buning uchun filialda 20 va 40 o'ringa mo'ljallangan zamonaviy o'quv qurollari bilan (internet, videoprojektor, televizor) jixozlangan 2 ta auditoriya va laboratoriya xonasi ajratilgan.



"Irrigatsiya tizimlarida suv energiyasidan foydalanish" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari "Gidroenergetik qurilmalardan foydalanish" fanidan 7, 8-semestr davomida 46 soat, "Nasos stansiyalari va qurilmalaridan foydalanish va tashxisi" magistratura mutaxassisligi magistrantlari esa "Gidroenergetik qurilmalar" fanidan 80 soat hajmidagi amaliy mashg'ulotlarni "Chirchiq GESlar kaskadi"ning yetakchi va tajribali mutaxassislari olib borishadi.

Amaliy mashg'ulotlar davomida talaba va magistrantlar GESning ishlash prinsipi, turbina va gidrogenerator, yordamchi jixozlari, boshqaruv tizimi, ekspluatatsiya qilish, joriy va kapital ta'mirlash, rekonstruksiya qilish kabi mavzularni bevosita ishlab chiqarish bilan bog'lab, o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashadi.

Kafedra filialida tizimli ravishda olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar uchun dars jadvali TIQXMMI o'quv ishlari bo'yicha prorektori professor B.S.Mirzayev tomonidan tasdiqlangan.



Shuningdek, TIQXMMI rektoriprofessor O'.P.Umurzoqov va "O'zbekgidroenergo" AJ raisi A.A.Sanginov tomonidan tuzilgan o'zaro hamkorlik shartnomasiga asosan mazkur ta'lim yo'nalishidagi 30 nafargacha talabalar uchun har yili o'quv-ishlab chiqarish amaliyoti ham Chirchiq GES lar kaskadlarida olib borilib, ular ushbu obyektlarda ishlab chiqarish uchun ko'nikma hosil qilishadi.

Bundan tashqari, talaba va magistrantlar GES tarkibiga kiruvchi gidrotexnik inshootlar -derivatsiya kanali, naporli hovuz, suv qabul qilish inshootlari, turbina va so'rish quvurlari, suv tashlash inshootlari, olib ketish

kanali kabi inshootlarning ekspluatatsiya qilish jarayonlarida ishtirok etishib, yillik, yarim yillik, chorak, oylik va dekadalar bo'yicha suv sarfi hamda ishlab chiqarilayotgan elektroenergiya miqdorini hisoblarini olib borish tartibini o'rganishadi.

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov